XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR KENGASHI QARORI

2022 - yil 11 - aprel VI-58-71-7-107-K/22 Samarqand shahar hokimligi

Shahar hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchi N.Alkarovning “Shahardagi ayrim nomsiz ko‘chalarni nomlash to‘g‘risida”gi hisoboti

O‘zbekiston Respublikasining Qonunining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 4 va 10-moddalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021-yil 30-noyabrdagi ekspertiza xulosasini inobatga olib, xalq deputatlari shahar Kengashining VI chaqiriq, LVIII sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Shahar hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchi N.Alkarovning Shahridagi ayrim nomsiz ko‘chalarga nom berish ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Samarqand shahar mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Nurullayev), shahar statistika bo‘limi (Ulashev), davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Samarqand shahar filiali (Abjalov), mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan ko‘cha nomlarini belgilangan tartibda statistik hisobotlarda aks ettirilishini va ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilishi ta’minlasin.

3. Samarqand shahar hokimi (Umarov), Samarqand shahri bo‘yicha ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (Ibragimov) nom berilgan ko‘chalarga aholini ro‘yxatga qo‘yish hamda tegishli belgilarini

o‘zgartirish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

4. Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Samarqand shahar filiali (Abjalov), shahar qurilishi bo‘limi (Djumayev) bilan birgalikda nom berilgan ko‘chalarga belgilangan tartibda zamonaviy talablar asosida peshlavha va ko‘rsatkich belgilarini o‘rnatilish ta’minlasin.

5. Shahar hokimligi axborot xizmati rahbari (Po‘latov). “Samarkand”gazetasi bosh muharriri (Jo‘rayev)lar gazetalarida rasman e’lon qilinishi va shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasinlar.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining “Qonuniylikni ta’minlash, sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Bababekova) va shahar hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Alkarov) zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **Ubaydulloyevich R. B.**

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2022 yil 11 apreldagi
VI-58-71-7-107-K/22-son qaroriga
1-ilova

Samarqand shahridagi ayrim nomsiz ko‘chalarni nomlash

T/r	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Nom berilayotgan ko‘cha	Respublika ekspertiza komissiyasi xulosasi
1.	“Galaosiyo” MFY	Nomsiz shoh ko‘cha	Zarafshon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	“Ibrohimxo‘ja” MFY	Nomsiz ko‘cha	Ibrohimxo‘ja	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	“Al-Xorazmiy” MFY	Nomsiz ko‘cha	Izvoshchilar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	“Chaqar” MFY	Nomsiz ko‘cha	Ilmobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	“Ko‘l” MFY	Nomsiz ko‘cha	Ko‘l	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6.	“Ogahiy” MFY	Nomsiz ko‘cha	Qumzor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7.	“Yoshlik” MFY	Nomsiz ko‘cha	Riga	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8.	“Chaqar” MFY	Nomsiz ko‘cha	Mustaqillik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9.	“Registon” MFY	Nomsiz ko‘cha	Puli Mirzo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10.	“Ipak yo‘li” MFY	Nomsiz ko‘cha	Said	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11.	“Qo‘shchinor” MFY	Nomsiz ko‘cha	Termiz	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12.	“Toshkent” MFY	Nomsiz ko‘cha	Toshkandiy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
13.	“Said” MFY	Nomsiz ko‘cha	Hoji Mo‘min	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14.	“Chaqar” MFY	Nomsiz ko‘cha	Chaqar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15.	“G‘ofur G‘ulom” MFY	Nomsiz ko‘cha	Munis	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
16.	“Bog‘ishamol” MFY	Nomsiz ko‘cha	Murod Avliyo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

T/r	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Nom berilayotgan ko‘cha	Respublika ekspertiza komissiyasi xulosasi
17.	“Xalqobod” MFY	Nomsiz ko‘cha	Payrav Sulaymoniy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
18.	“Galaosiyo” MFY	Nomsiz ko‘cha	Ulug‘bek yulduzlari	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
19.	“Jo‘yichuqur” MFY	Nomsiz ko‘cha	Xoja Is’hoqi Vali	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
20.	“Obod maskan” MFY	Nomsiz ko‘cha	O‘tkir Hoshimov	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
21.	“Yuksalish” MFY	Nomsiz ko‘cha	Ozod Sharafiddinov	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
22.	“Geologlar” MFY	Nomsiz ko‘cha	Xoja Samandar Termiziy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
23.	“G‘afur G‘ulom” MFY	Nomsiz ko‘cha	Said Ahmad	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
24.	“Afrosiyob” MFY	Nomsiz ko‘cha	Soyib Xo‘jayev	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
25.	“Orzu” MFY	Nomsiz ko‘cha	Primqul Qodirov	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq